IJTIMOIY TARMOQLARNING YOSHLAR ONGIGA TA’SIRI VA PSIXOLOGIK JIHATLARI

Bebitov Doston Nizomiddinovich
Xalqaro Nordik universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezisda ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ongiga ta’siri va uning psixologik jihatlari ko‘rib chiqiladi. Yoshlarning hissiy holati, xulq-atvori va o‘zini anglash jarayoniga ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardan to‘g‘ri foydalanish zarurligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy tarmoqlar, yoshlar, psixologik ta’sir, emotsiya, internet, xulq-atvor.

Kirish. Hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlar yoshlar hayotida muhim o‘rin egallamoqda. Deyarli har bir yosh Instagram, Telegram yoki TikTokdan foydalanadi. Bu platformalar orqali ular nafaqat muloqot qiladi, balki yangiliklardan xabardor bo‘ladi va o‘z fikrlarini bildiradi.

Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ongiga qanday ta’sir qilayotgani masalasi ham muhim hisoblanadi. Chunki yoshlar hali psixologik jihatdan to‘liq shakllanmagan bo‘ladi va tashqi ta’sirlarga tez beriladi.

Asosiy qism. Ijtimoiy tarmoqlar yoshlarning psixologiyasiga turli yo‘llar bilan ta’sir qiladi.

Avvalo, yoshlar ko‘pincha o‘zini boshqalar bilan solishtiradi. Ijtimoiy tarmoqlarda ko‘rsatiladigan “ideal hayot” ularni o‘z hayotidan norozi bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Bu esa o‘ziga bo‘lgan ishonchni kamaytiradi.

Yana bir muhim jihat — bu ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik. Layk va kommentlar yoshlar uchun muhim bo‘lib qoladi. Ular ko‘proq e’tibor olish uchun turli harakatlar qiladi. Bu esa vaqtni behuda sarflashga olib keladi.

Shuningdek, yoshlar ko‘pincha blogerlar va mashhur insonlarga taqlid qiladi. Ularning kiyinish uslubi, gapirish tarzi va hatto fikrlashiga ham ta’sir o‘tadi.

Biroq ijtimoiy tarmoqlarning foydali tomonlari ham bor. Masalan, ular orqali yoshlar yangi bilimlar oladi, xorijiy tillarni o‘rganadi va dunyoqarashini kengaytiradi.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, yoshlar ko‘pincha mashhur blogerlar va internet shaxslariga taqlid qiladi. Bu holat A. Bandura tomonidan asoslab berilgan ijtimoiy o‘rganish nazariyasi bilan izohlanadi. Ya’ni insonlar boshqalarni kuzatish orqali xulq-atvorni o‘zlashtiradi.

Shu bilan birga, E. Erikson nazariyasiga ko‘ra, yoshlar o‘z identitetini shakllantirish bosqichida bo‘ladi. Ijtimoiy tarmoqlar esa bu jarayonga ta’sir qilib, ba’zan sun’iy obraz yaratishga olib keladi.

Tadqiqotchilar (D. Boyd, S. Turkle) ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ijtimoiylashuviga ta’sirini o‘rganib, virtual muloqotning ortishi real ijtimoiy aloqalarning kamayishiga olib kelishini qayd etgan. Shuningdek, ayrim izlanishlarda ijtimoiy tarmoqlardan ortiqcha foydalanish xavotir va tushkunlik holatlarini kuchaytirishi mumkinligi ta’kidlanadi.

Biroq ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy jihatlari ham mavjud. Ular orqali yoshlar bilim oladi, dunyoqarashini kengaytiradi va o‘z qiziqishlarini rivojlantiradi.

Xulosa. Umumiy qilib aytganda, ijtimoiy tarmoqlar yoshlar ongiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu ta’sir ijobiy va salbiy jihatlarni o‘z ichiga oladi.

Shu sababli yoshlar orasida ijtimoiy tarmoqlardan oqilona foydalanish madaniyatini shakllantirish, media savodxonlikni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boyd D. It’s Complicated: The Social Lives of Networked Teens. 2014.
2. Turkle S. Alone Together. 2015.
3. Valkenburg P., Peter J. Online Communication and Adolescent Well-being. 2011.

4. Bandura A. Social Learning Theory. 1977.
5. Erikson E. Identity: Youth and Crisis. 1968.